

Buxoro viloyatida

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025 yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 - yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4 890,7 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4 812,2 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 53,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 25,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 - yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (621,9 mlrd so'm), Buxoro (585,8 mlrd so'm), Romitan (497,2 mlrd so'm), Shofirkon (495,1 mlrd so'm), G'ijduvon (459,8 mlrd so'm) va Kogon (434,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (15,2 mlrd so'm), Buxoro shahar (92,6 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (156,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	4 890,7	103,6
Buxoro shahar.	92,6	110,0
Kogon shahar	15,2	94,3
Olot tumani	370,1	102,2
Buxoro tumani	585,8	100,6
Vobkent tumani	380,5	102,8
G'ijduvon tumani	459,8	103,1
Kogon tumani	434,9	103,2
Qorako'l tumani	429,8	104,3
Qorovulbozor tumani	156,7	104,1
Peshku tumani	351,1	105,3
Romitan tumani	497,2	106,6
Jondor tumani	621,9	103,4
Shofirkon tumani	495,1	103,8

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (110,0 %), Romitan (106,6 %), Peshku (105,3 %), Qorako'l (104,3 %) va Qorovulbozor (104,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Kogon shahar (94,3 %), Buxoro (100,6 %), Olot (102,2 %), Vobkent (102,8 %) va G'ijduvon (103,1 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025 - yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 722,5 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 302,8 mlrd so'mni (106,4 %), chorvachilik mahsulotlari 4 419,7 mlrd so'mni (103,2 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (598,5 mlrd so'm), Buxoro (573,6 mlrd so'm), Shofirkon (491,1 mlrd so'm) va Romitan (479,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (14,7 mlrd so'm), Buxoro shahar (89,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (139,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (109,1 %), Romitan (105,9 %), Peshku (105,2 %) va Qorako'l (104,4 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon shahar (93,3 %), Buxoro (101,1 %) va Olot (102,2 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,8 % i fermer xo'jaliklariga, 4,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (568,7 mlrd so'm), Buxoro (525,5 mlrd so'm), Shofirkon (474,4 mlrd so'm), G'ijduvon (414,4 mlrd so'm) va Romitan (414,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (14,7 mlrd so'm), Buxoro shahar (81,4 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (105,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (107,1 %), Peshku (105,2 %), Qorako'l (104,1 %), Shofirkon (103,7 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon shahar (93,2 %), Buxoro (101,3 %), Olot (102,3 %) va Vobkent (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,2 ming tonna go'sht, 218,9 ming tonna sut, 91,4 mln dona tuxum, 160 tonna qirqib olingan jun, 171,4 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 0,8 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, sog'ib olingan sut – 104,1 % ni, olingan tuxum – 101,7 % ni, qirqib olingan jun – 118,5 % ni, olingan qorako'l teri – 102,2 % ni hamda ovlangan baliqlar – 105,0 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,3 % i fermer xo'jaliklari, 89,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025 - yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	54,2	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,7	117,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	47,6	102,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,9	100,4
Sut, ming tonna	218,9	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,3	112,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	196,8	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,8	118,9
Tuxum, mln. dona	91,4	101,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	22,9	109,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	35,3	90,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	33,2	111,1
Jun, tonna	160	118,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	42	203,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	111	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7	116,7
Qorako'l teri, ming dona	171,4	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	28,6	109,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	138,3	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,5	103,6
Baliq, tonna	835,8	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	253,1	108,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	113,1	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	469,6	104,0

Shu bilan birga, olingan tuxumning 25,1 % i fermer xo'jaliklariga, 38,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 36,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 26,3 % i fermer xo'jaliklari, 69,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 4,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 16,7 % i fermer xo'jaliklariga, 80,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 30,3 % i fermer xo'jaliklariga, 13,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 56,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Buxoro viloyati	54 208	218 911	91 396
Buxoro shahar.	1 293,1	1 241,4	2 098,5
Kogon shahar	260,4	176,3	384,7
Olot tumani	4 172,4	15 786,8	3 225,3
Buxoro tumani	6 432,3	26 211,3	7 602,4
Vobkent tumani	3 999,4	20 942,1	5 518,5
G'ijduvon tumani	4 773,0	23 329,1	7 192,6
Kogon tumani	5 941,4	12 011,6	19 989,9
Qorako'l tumani	4 794,6	19 312,5	7 455,5
Qorovulbozor tumani	1 623,3	3 688,7	2 222,5
Peshku tumani	3 314,6	21 212,9	3 210,6
Romitan tumani	5 047,9	20 841,6	3 702,3
Jondor tumani	6 887,3	30 009,2	25 625,1
Shofirkon tumani	5 668,3	24 147,5	3 168,1

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Romitan (64,9 mlrd so'm), Buxoro (48,1 mlrd so'm), Qorovulbozor (34,0 mlrd so'm), Jondor (29,7 mlrd so'm) va G'ijduvon (24,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (0,02 mlrd so'm), Buxoro shahar (8,4 mlrd so'm) va Kogon tumani (10,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (128,6 %), Romitan (121,1 %), Qorako'l (109,4 %), Kogon (105,0 %) va Peshku (104,3 %) tumanlarida qayd etildi. Jondor (98,4 %), Buxoro (99,2 %), Olot (100,1 %) va G'ijduvon (101,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	8 512	109,4
Buxoro shahar.	393,0	139,3
Kogon shahar	0,0	0,0
Olot tumani	252,6	90,9
Buxoro tumani	1 827,7	96,6
Vobkent tumani	107,0	105,9
G'ijduvon tumani	486,0	97,2
Kogon tumani	174,4	108,0
Qorako'l tumani	325,5	124,5
Qorovulbozor tumani	1 637,0	104,4
Peshku tumani	79,1	107,3
Romitan tumani	2 793,5	130,6
Jondor tumani	256,7	74,5
Shofirkon tumani	179,5	100,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Romitan tumani (32,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Buxoro (21,5 %), Qorovulbozor (19,2 %), G'ijduvon (5,7 %), Qorako'l (3,8 %) tumanlarida va Buxoro shaharda (4,6 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Peshku (0,9 %), Vobkent (1,9 %) va Shofirkon tumanlarida (2,1 %) kuzatildi.



2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (139,3 %), Romitan (130,6 %), Qorako'l (124,5 %), Peshku (107,3 %) va Vobkent tumanida (105,9 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025 - yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 372,7 ming boshga yetdi, (2024 yilning 1 aprel holatiga nisbatan 2,1 % ga ko'p), sigirlar 446,8 ming boshga (2,0 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 471,8 ming boshga (2,3 % ga ko'p), parrandalar 7 482,2 ming boshga (4,7 % ga ko'p) yetdi.

2025 - yilning 1 aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 372,7	102,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	114,2	106,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 234,1	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24,4	108,8
shundan sigirlar	446,8	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	40,2	107,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	398,6	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,0	112,7
Qo'y va echkilar	2 471,8	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	403,8	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 888,6	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	179,4	107,5
Otlar	7,9	105,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,4	111,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3,0	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	104,0
Parrandalar	7 482,2	104,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 919,6	107,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 683,8	99,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 878,8	108,3

2025 - yilning 1 aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,0 % i fermer xo'jaliklariga, 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,3 % i fermer xo'jaliklariga, 76,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 25,7 % i fermer xo'jaliklariga, 35,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 43,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025 - yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Buxoro viloyati	1 372,7	2 471,8	7 482,2
Buxoro shahar.	6,5	18,0	148,9
Kogon shahar	1,4	4,3	41,3
Olot tumani	123,7	246,4	255,2
Buxoro tumani	129,1	174,5	705,2
Vobkent tumani	119,7	115,9	531,6
G'ijduvon tumani	167	317,6	980,3
Kogon tumani	89,5	93,3	856,8
Qorako'l tumani	155,3	296,1	450,7
Qorovulbozor tumani	23,4	164	250,8
Peshku tumani	129,1	247,4	192,2
Romitan tumani	135,6	215,8	632,6
Jondor tumani	140,3	367,4	2 160,5
Shofirkon tumani	152,1	211,1	276,1

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Shodiyev
65 223-44-45 (81-10)
